

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti
“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasи**

**Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti
60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lif
yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun**

“Hayvonlar patofiziologiyasi” fanidan

**“Yallig'lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi”.
mavzusidagi amaliy mashg'ulot bo'yicha ochiq dars**

I S H L A N M A S I

Samarqand – 2023

Tuzuvchi:

F.D.Ibragimova

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya ” kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

D.Eshimov

“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya ” kafedrasi mudiri, b.f.n, dotsent

D.S.Haydarova

Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti

“Patologik fiziologiya” kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**“Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari va qon tomirlar reaksiyasi.”
mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.**

Vaqt: 2 soat	<i>Talabalar soni: 23 ta</i>
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Laboratoriya mashg‘uloti
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> Yallig‘lanishning sabablari, bosqichlari. Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari, oqibati va ahamiyatini o‘rganish. Yallig‘lanishda qon tomirlar reaksiyasi haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Darsning maqsadi: : Yallig‘lanishning sabablari, bosqichlari.

Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari, oqibati va ahamiyatini o‘rganish.

Yallig‘lanishda qon tomirlar reaksiyasi haqida tushunchaga ega bo‘lish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> - Yallig‘lanish haqidagi tushinchalarni talabalar ongiga mustahkamlash; - Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilari aniqlashni talabalar ongiga mustahkamlash; - Tajriba asosida mavzuni talabalar ongiga mustahkamlash. 	<p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Yallig‘lanishning kelib chiqish sabablari; - Yallig‘lanishning belgilarini aniqlashni o‘rganadilar. - Yallig‘lanishda qon tomirlar reaksiyasi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar;
<i>Ta’lim usullari</i>	Amaliy mashg‘ulot, pinbort, aqliy hujum, zinama-zina, kloster
<i>Ta’limni shakllantirish shakli</i>	Jamoaviy
<i>Ta’lim vositalari</i>	<p>Amaliy mashg‘uloti mavzusi bo‘yicha tarqatma materiallar tajriba hayvonni va laboratoriya hayvonlari;</p> <p>Reaktivlar: 80% li skipidar emulsiyasi, spirt, yod.</p> <p>Jihozlar: 2 ml hajmdagi shpris, ineksiya signalari, paxta. shprislar, qaychilar.</p>
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor - so‘rov.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
1 – bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2 - boqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi.</p> <p>2.2. Yallig‘lanish va kelib chiqish sabablari to‘g‘risidagi tushinchalarni sharhlab beradi.</p> <p>2.3 O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda darsni bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.4. Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilarini va qon tomirlar reaksiyasiga izoh beradi.</p> <p>2.5. Hayvonda yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilarini ko‘rsatib beradi;</p> <p>2.6. Talabalarga mavzuning asosiy tushinchalariga e’tibor qilishni va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	<p>2.1. Eshitadi. Navbat bilan mavzularni aytadi. O‘yaydi, javob beradi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi.</p>
3 -bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligiga talabalar e’tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Guruh ishini baholaydi,</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p>	O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o’tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar: skipidar emulsiyasi, alterasiya, proliferasiya, diastrofiya, ekssudasiya va emigrasiya, rubor, tumor, color, dolor, functio laesa, nefrit, pnevmoniya, angina.

Darsning maqsadi: Yallig'lanishning sabablari, bosqichlari, tashqi mahalliy belgilari, oqibati va ahamiyatini o'rganish. Yallig'lanishda qon tomirlar reaksiysi haqida tushunchaga ega bo'lish. Kongeym tajribasida ekssudasiya va emigrasiyani o'rganish.

Darsga kerak bo'ladigan laboratoriya hayvonlari va jihozlar:

1. Laboratoriya hayvoni: oq quyon. baqalar.
2. Reaktivlar: 80% li skipidar emulsiyasi, spirt, yod. 0,25 %li metilen ko'ki eritmasi, osh tuzi kristali.
3. Jihozlar: qaychi, 2 ml hajmdagi shpris, ineksiya ignalari, paxta. shprislar, qaychilar, po'kak taxtachalari, ignalar, 1 ml hajmdagi shpris, ineksiya ignalari, paxta, mikroskop

Yallig'lanish – inflammatio organizmning kasallik chaqiruvchi sabablarga javoban murakkab qon tomirlar reaksiysi bo'lib, shikastlangan joylarda to'qimalardagi almashinuv jarayonlari buzilib, to'qimalar distrofiyasi (alterasiya), hujayra elementlarining ko'payishi (proliferasiya) va mahalliy qon aylanishining buzilishi (ekssudasiya va emigrasiya) bilan xarakterlanadi.

Alteratsiya-to'qima distrofiyasi

**Proliferatsiya-hujayra elementlarining
ko'payishi**

**Eksudatsiya va emmigratsiya-mahalliy qon
aylanishining buzilishi**

Yallig'lanishning sabablari juda xilma-xil bo'lib, ular ikkiga bo'lib o'rganiladi.

1.Ekzogen (tashqi) sabablar:

- a).mexanikaviy omillar (lat eyish, ezilish, jarohatlar);
- b).fizikaviy omillar (issiq, sovuq, turli nurlar);
- v).kimyoviy omillar (kislotalar, ishqorlar, skipidar);
- g).biologik omillar (patogen mikroblar, viruslar, zamburug'lar, gelmentlar va boshqalar);

Yallig'lanishning ekzogen sabablari

Mexanikaviy - lat yeyish, ezilish, jarohatlar

Fizikaviy - issiqlik, sovuq, turli nurlar

Kimyoviy - Kislotalar, ishqorlar, skipidar

Biologik - mikroblar, viruslar, zamburug'lar, gelmentlar

2.Endogen (ichki) sabablarga nekrotik to'qima mahsulotlari, tromb va embollar, cho'kmaga tushgan tuzlar, to'qimalar oralig'iga quyilgan qon, moddalar almashinuvining buzilishidan hosil bo'layotgan metabolitlar, o'lgan to'qima, infarkt, gematoma, tuzlarning to'planishi va boshqalar kiradi.

Yallig'lanishlarni davolashda va oqibatini aniqlashda, uning etiologiyasini bilish muhim ahamiyatga ega.

Yallig'lanishning endogen sabablari

Tromb, embollar, nekrotik to'qima

Cho'kmaga tushgan tuzlar

Metabolitlar

Tuzlarning to'planishi

Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilarini dastlab, Sel’s va Galen aniqlab, sharhlab bergen:

- 1.Qizarish -rubor;
- 2.Shish yoki qavarish- tumor;
- 3.Qizish-color;
- 4.Og‘riq-dolor;
- 5.Faoliyatning buzilishi - functio laesa.

Qizarish-rubor

Shish, qavarish-tumor

Qizish-color

Og'riq-dolor

Faoliyatning buzilishi-functio laeza

Ayrim yallig‘lanishlarda, ayniqsa, ichki organlar yallig‘langada bu belgilarning ko‘pchiliginи kuzatib bo‘lmaydi. M: yurak, buyrak va jigar yallig‘langanda.

Har qanday yallig‘lanish quyidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uch jarayonning kechishi bilan ifodalanadi:

- 1.Alterasiya (diastrofiya) jarayonida to‘qima shikastlanadi to‘qimaning tuzilishi, faoliyati, qon bilan ta’minlanishi va moddalar almashinuvni buziladi.
- 2.Ekssudatsiya va emigratsiya jarayoni tomirlarda qon aylanishining buzilishi tufayli kelib chiqadi. Tomirlar kengayishi, qon harakatining sekinlashishi va tomirlar devorining o‘tkazuvchanligi oshishi natijasida yallig‘langan to‘qimaga qonning suyuq jismi (ekssudatsiya) va shaklli elementlarining, ayniqsa leykositlarning chiqishi (emigratsiya) kuzatiladi.

Yallig‘lanishda tomirlardan to‘qimaga chiqadigan suyuqlik-ekssudat yoki yallig‘lanish suyuqligi deyiladi. Ekssudat shish suyuqligi-tranosudatdan oqsilni ko‘proq saqlashi (5-8%), qonning shaklli elementlarini, to‘qimaning parchalanish mahsulotlarini bo‘lishi bilan farq qiladi.

Ekssudat patogen agentlarni suyultiradi. emigrasiya bo‘lgan leykositlar esa patogen agentga qarshi kurashib, ularni fagositozga uchratadi va to‘qimani o‘lik hujayralardan tozalashda ishtirok etadi.

- 3.Proliferatsiya jarayoni- hujayra elementlarining ko‘payishi bilan ifodalanadi. Natijada to‘qima yangilana boshlaydi va bunda tomirlarning endoteliy, adventisiy

hujayralari, fibroblastlar, gistiositlar, fibrositlar va emigrasiya bo‘lgan monositlar faol ishtirok etadi.

Proliferatsiyadan keyin yallig‘lanish hodisalariga kirmaydigan, biroq ulardan ajratish qiyin bo‘lgan regeneratsiya paydo bo‘ladi. U biriktiruvchi to‘qima hujayralarining o‘sishi, qon tomirlarining ko‘payishidan iborat. Yangidan hosil bo‘layotgan yosh, tomirlarga boy granulasion to‘qima infiltrlangan qismlarga o‘sib kiradi. U yallig‘langan, joyning o‘rtasiga siljib, to‘qima nuqsonlarini bartraf qiladi. O‘lgan to‘qimalarning o‘rni to‘ladi va yallig‘langan to‘qima bilan sog‘lom to‘qima o‘rtasida g‘ov (demarkasion qism) hosil qiladi.

Yallig‘lanish jarayonini aniqlab, uni nomlashda organ yoki to‘qimaning lotincha nomiga «IT» (itis) so‘zini qo‘shish qabul qilingan.


Masalan:

- buyraklar yallig‘lanishi- nefrit
- bo‘g‘im yallig‘lanishi- artrit
- jigar yallig‘lanishi- genatit va hakazo.

Ayrim organlarning yallig‘lanishi esa alohida nomlanadi.

Masalan:

- o‘pka yallig‘lanishi-pnevmoniya
- halqum yallig‘lanish-angina



Yallig'lanishning oqibatlari:

- 1.Yallig‘langan to‘qimaning tuzilishi va faoliyati to‘liq tiklanadi.
- 2.Yallig‘langan to‘qima chandiq hosil bo‘lishi hisobiga chala tiklanadi.
- 3.Yallig‘lanish, ba’zan (Masalan: ozg‘in, qari hayvonlarda) uzoq tuzalmaydigan surunkali shaklga aylanib ketishi mumkin.
- 4.Yallig‘langan to‘qima nobud bo‘lishi mumkin.

1-tajriba. Yallig‘lanishning tashqi mahalliy belgilarini o‘rganish.

Tajriba uchun kerakli hayvonlar va jihozlar: oq quyon, qaychi, 2 ml hajmdagi shpris, ineksiya ignalari, 80% li skipidar emulsiyasi, paxta, spirt, yod.

Tajribani o‘tkazish tartibi: 1.Dars boshlanishidan 2 kun oldin oq quyonning sonidagi jun qaychi bilan qirqiladi, spirtda namlangan paxta bilan artiladi va terisi ostiga 1 ml 80% li skipidar emulsiyasidan yuboriladi.

2.24-48 soatdan keyin o‘scha joyning terisida hosil bo‘lgan yallig‘lanishning turi va tashqi mahalliy belgilari aniqlanadi.

3.Quyonning klinik statusi (tana harorati, yurak va nafas chastotalari) ham aniqlanadi.

4.Olingan natijalar va xulosa tajriba bayoniga yoziladi.

Yallig‘lanish o‘chog‘ida qon tomirlarini harakatlantiruvchi markazlarni kasallik chaqiruvchi omillar ta’sirida reflektor qo‘zg‘alishidan avvalo qisqa vaqtli qon tomirlarini torayishi (harakatlantiruvchi nervlar ta’sirlanganida birinchi davrda qon tomirlarini toraytiruvchi ta’sir qon tomirlarini kengaytiruvchi ta’sirdan ustun bo‘ladi) yuzaga keladi.

Qon tomirlarni boshlang‘ich torayishi yo‘qoladi (ba’zan kuzatib ham bo‘lmaydi) va tomirlarni kengayishi bilan almashinadi. Yallig‘lanishga yallig‘langan to‘qimalarda qon tomirini kengayishi xarakterli belgidir. Odatda arteriola, perekapillyar va kapillyarlar kengayishidan yallig‘lanish manbaiga qon oqishi va qonni oqib kelishi tezlashadi natijada arterial giperemiyaga hosil bo‘ladi. Yallig‘lanish o‘chog‘iga arteriya qonini oqib kelishini kuchayishidan mahalliy almashinish jarayoni va harorat ortadi, hamda yallig‘langan to‘qima qizaradi. Qon tomirlarini kengayishini qon tomirlar devorini nerv muskul apparatini kasallik chaqiruvchi agent ta’sirida va reflektor ravishda qon tomirlarni kengaytiruvchi ta’sirdan kelib chiqadi deb tushintiradi. To‘qima elastikligini pasayishi (distrofik jarayonlar evaziga), ular atrofidagi mayda qon tomirlari, yallig‘langan to‘qimalarni fiziko – kimyoviy holatini o‘zgarishi bunga imqon yaratadi. Moddalar almashinuvining aynishi natijasida hosil bo‘lgan dilyatator moddalar va yallig‘lanish o‘chog‘ida to‘plangan moddalar (albumoz, pepton, gistamin, asetilxolin, adenin, nukleotidlari) qon tomirlariga kuchli kengaytiruvchi ta’siri ko‘rsatadi. Qon tomirlarini kengayishiga vodorod ionlari va kaliy ionlarini yallig‘lanish o‘chog‘ida ko‘payishi ham ta’sir ko‘rsatadi. Yallig‘lanish o‘chog‘idagi tomirlarda qon harakati ham bir muncha o‘zgaruvchan bo‘ladi. Yallig‘lanishning birinchi bosqichida qon tomirlari birlamchi torayishdan keyin kengayib qon oqishiga qarshiligi bo‘limganligi tufayli qonni oqib kelishi kuchayadi.

Keyinchalik qon oqib kelishi zaiflashib, arterial giperemiyaga venoz giperemiyaga bilan o‘rin almashinadi. Yallig‘lanish o‘chog‘ida qon oqishini zaiflashishi bir qancha omillarga bog‘liq:

1. Tomirlar nerv muskul apparatini paralichi tufayli tomirlar tonusi yo‘qoladi.
2. Qon tomirlar ko‘ndalang kesm yuzasini bir muncha kattalashishi (ko‘pchilik kapillyarlar kengaygani uchun);

4. Vena qon tomirlarini shish suyuqliklari bilan qisilishidan venalarda qon oqib ketishini qiyinlashishi;
5. Qon tomirlar ichki devoriga leykositlar o‘tirib qolishi, ba’zi bir qon tomirlarida tromblarni tigelishidan tomirlar devori notejis bo‘lib qoladi.

Yallig‘lanish o‘chog‘idagi tomirlar reaksiyasi ham turli – tuman ta’sirotchiga o‘zgargan bo‘lib, masalan ular tomirlarni toraytiruvchi muddalar ta’siriga (adrenalin, kafein va boshqalar) va qon tomirlarini toraytiruvchi nervlarni ta’siriga javob bermaydi (simpatik nervni). Yallig‘lanish o‘chog‘ida qon qon tomirlar harakatini sekinlashishi, bir qancha oqibat belgilari tariqasida qon tomir devorini buzilishi, tromb hosil bo‘lishi va qon quyilishidan to uni to‘lig‘icha to‘xtashigacha olib kelishi mumkin (staz holati). Yallig‘lanish o‘chog‘ida qon aylanishini buzilishi, to‘qimani oziqlanishini va muddalar almashinuvini yomonlashishini chaqiradi, bu esa o‘z navbatida yallig‘lanish o‘chog‘idagi holatni kuchaytiradi.

2-tajriba. O‘tkir yallig‘lanishda tomirlar reaksiyasi (Kogneym tajribasi).

Tajriba uchun kerakli hayvonlar va jihozlar: baqalar, shprislar, qaychilar, po‘kak taxtachalari, ignalar, 1 ml hajmdagi shpris, ineksiya ignalari, 0,25 % li metilen ko‘ki eritmasi, osh tuzi kristali, paxta, mikroskop.

Tajribani o‘tkazish tartibi: Baqa harakatsizlanriladi va po‘kak taxtachasining ustiga qorni bilan yotqiziladi, mahkamlanadi. Qorinning yonidan terisi, muskuli kesiladi. Kesim orqali pinset bilan baqaning ichagi tortiladi, uni po‘kak taxtachasining chetiga mahkamlab, ichak tutqich pardasi teshik ustiga tortiladi. Havo yoki yanada tezroq osh tuzi kristali ta’siridan ichak tutqich pardasini yallig‘lanish jarayoni avj ola boshlaydi. Yallig‘lanishning dastlabki daqiqalarida mikroskop ostida quyidagi hodisa kuzatiladi: tomirlar (dastavval arteriolalar, so‘ngra kapillyarlar) kengayadi; ana shu kengayish bilan bir vaqtida qon aylanishi tezlashadi. Bu arteriolalarda ayniqsa sezilarli bo‘ladi. Bu hodisa venalar va kapillyarlarda ham kuzatiladi. Qo‘p yoki oz vaqt o‘tgach, bu tezlanish qon oqimining sekinlashishi bilan almashinadi. Mayda vena va kapillyarlarda qon harakati sekinlashgan sayin qon o‘zanining markazida eritrositlarning tartibsiz harakati, devor oldi-plazmatik qatlamning rangsiz tanachalar (leykositlar) bilan to‘lishi va ularning go‘yo tomirlar devorining ichiga yopishishi seziladi. Leykositlarning chetda turish holatidan so‘ng (2-8 soatdan so‘ng, ba’zan kechroq) emigrasiyasi boshlanadi.

Leykositlar emigrasiyasi bilan bir vaqtida suyuqlikning tomirlardan to‘qimaga chiqishi-ekssudasiyasi kuzatiladi. Bundan oldin son yoki qorin venasiga 1ml 0,25 % li metilen ko‘ki eritmasi yuborilsa, bu ayniqsa sezilarli bo‘ladi. Olingan natijalar va xulosa tajriba bayoniga yoziladi.

Nazorat uchun savollar

1. Yallig‘lanish deb nimaga aytildi?
2. Yallig‘lanish chaqiruvchi moddalar qanday nomlanadi va qanday turlarini bilasiz?
3. Yallig‘lanish davrida to‘qimalarda qanday mahalliy o‘zgarishlar hosil bo‘ladi?
4. Yallig‘lanishni qanday turlarini bilasiz?
5. Yallig‘lanishni mahalliy o‘zgarishlarini hosil bo‘lishini qanday qilib shakllantirasiz?
6. Kasallik chaqiruvchi sabablar qon tomirlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mavzuga oid test topshiriqlari

1. Yallig‘langan to‘qima tomir devori orqali qonning suyuq qismini chiqishiga nima deyiladi?
 - A. Alteratsiya
 - B. Ekssudatsiya
 - C. Emigratsiya
 - D. Proliferatsiya
2. Yallig‘langan to‘qima tomir devori orqali qonning leykotsitlarning chiqishiga nima deyiladi?
 - A. Alteratsiya
 - B. Emigratsiya
 - C. Ekssudatsiya
 - D. Proliferatsiya
3. Yallig‘lanish o‘chog‘ida hujayra elementlarining ko‘payishiga nima deyiladi?
 - A. Proliferatsiya
 - B. Alteratsiya
 - C. Emigratsiya
 - D. Ekssudatsiya
4. To‘qimalarda distrofiya, nekroz va nekrobioz hodisalarining ustunligi bilan ifodalanadigan yalliglanisga nima deyiladi?
 - A. Proliferativ yallig‘lanish
 - B. Emigrativ yallig‘lanish
 - C. Ekssudativ yallig‘lanish
 - D. Alterativ yallig‘lanish
5. Yallig‘langan to‘qima yoki organi nomlashda ular nomiga yunoncha yoki lotincha qaysi so‘z qo‘sib o‘qiladi?
 - A. «oma» «iya»
 - B. «it» «iya»
 - C. «genet» «iya»
 - D. «iya» «pir»

6. Yallig‘lanishning qanday tashqi belgilarini bor?
 - A. Qizarish, shish, qizish, og‘riq, faoliyatini buzilishi
 - B. Shish, qizish, og‘riq
 - C. Qizarish, shish, og‘riq
 - D. Shish, og‘riq, faoliyatining buzilishi
7. Yallig‘lanishning tashqi belgilarini kimlar aniqlab, sharxlab bergan?
 - A. Sels va Galen
 - B. Sels va Parasels
 - C. Galen va Garvey
 - D. Gippokrat va Demokrit
8. Yallig‘lanishni qanday asosiy bosqichlarini bilasiz?
 - A. Alteratsiya, ekssudatsiya va emigratsiya, proliferatsiya
 - B. Alteratsiya, ekssudatsiya, regeneratsiya va emigratsiya
 - C. Distrofiya, ekssudatsiya, regeneratsiya va emigratsiya
 - D. Ekssudatsiya, emigratsiya, proliferatsiya va regeneratsiya

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.X.Xaitov, D.E.Eshimov « Hayvonlar patofiziologiyasi » oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent-«Ilm Ziyo» -2013.
2. D.E.Eshimov, R.F.Ro‘ziqulov. «Hayvonlar fiziologiyasi fanidan amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari». O‘quv qo‘llanma. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2006 yil.
3. Лютинский С.И. Патологическая физиология сельскохозяйственных животных. Москва издательская группа «ГЭОТАР-Медиа», 2011.
4. M.Donald., James F. «Patologik basis of veterinary disese» Humana Press, 2011 edition.

Internet saytlari:

1. www.Ziyo.net.uz.
2. www: zooveterinariya@mail.ru
3. www: veterinary@actavis.ru
4. www: zootechniya.ru
5. www. Kodesges.ru

